POETIK MANZARALARNING TASAVVUFIY TALQINI

Ernazarova Gulbahor Isokovna,
Sharov Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti assistenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD
bahoriso@inbox.ru ORCID: 0000-0002-9705-1255

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20427344

Annotatsiya. *Istiqlol arafasi va undan keyingi yillar o'zbek she'riyatining eng xarakterli belgilaridan biri, ko'pchilik shoirlar ijodida tasavvuf ohanglaridagi asarlar yaratildi. Voqelikning poetik manzaralarini gavdalantirishda tasavvufiy talqinlar muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Ushbu maqolada hozirgi o'zbek she'riyatida tasavvuf ohanglari ifodasi Abdulla Oripov she'riyati misolida tadqiq etiladi.*
Kalit so'zlar: *tasavvuf, tariqat, hadis, poetik g'oya, uslub, talqin, an'ana va yangilik.*

Annotation. *On the eve of independence and in the years that followed, one of the most characteristic features of Uzbek poetry was the creation of sufistic works in the works of many poets. Sufistical interpretations began to play an important role in embodying the poetic landscapes of reality. In this article, the expression of mystical tones in modern Uzbek poetry is studied on the example of the poetry of Abdulla Aripov, a wise poet of Uzbek poetry.*
Keywords: *tradition and innovation, sufism, teachings, hadith, poetic idea, style, interpretation.*

Аннотация*. Одной из наиболее характерных особенностей узбекской поэзии накануне независимости и в последующие годы стало создание произведений с суфийскими мотивами в творчестве многих поэтов. Суфийские интерпретации начали приобретать важное значение в воплощении поэтических картин действительности. В данной статье выражение суфийских мотивов в современной узбекской поэзии исследуется на примере поэзии Абдулла Орипов.*
Ключевые слова: *суфизм, тарикат, хадис, поэтическая идея, стиль, интерпретация, традиция и новаторство.*

Kirish. Ijodiy ta'sir ruhiyatda kechadigan murakkab jarayon. Bu ta'sir san'atkor qalbiga singib, uning xos tabiatiga aylanadi hamda oddiy nigoh bilan ilg'ash qiyin bo'lgan bir shaklda namoyon bo'ladi. Hozirgi she'riyatda tasavvuf falsafasining ta'sirini o'rganishda masalaning shu jihatlariga e'tibor qaratish lozim.

Milliy ozodlik, taraqqiyot, ma'rifat, islohot kabi g'oyalar bilan maydonga chiqqan jadidlar o'tgan asr boshlarida adabiyotda bir qator yangilanishlar va o'zgarishlar an'anasini boshlab berishdi. Sotsialistik realizm tamoyillariga muvofiqlashtirilgan davr adabiyotidagi yangilanish o'tgan asrning 60-70-yillariga qadar davom etdi. Asqad Muxtor, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Muhammad Ali kabi shoirlarning 60-70-yillar she'riyatida jadid adiblari kuylagan g'oyalar, adabiy usullar bo'y ko'rsata boshladi. 70-yillar avlodi deya nom olgan shoirlar Usmon Azim, Xurshid Davron, Shavkat Rahmon, Abdulla Sher va boshqalar ijodida bu yangilanishlar an'anasi yanada kengaydi.

Istiqlol arafasi va undan keyingi o'n yilliklar o'zbek she'riyati janriy rang-baranglik, uslubiy o'ziga xoslik, poetik g'oya va ifoda tarzining xilma-xilligi hamda

boshqa alomatlari bilan jadidlar davri adabiy jarayonini esga soladi. Bu davr adabiyotining eng xarakterli belgilaridan biri, katta-kichik shoirlarning aksariyatida tasavvuf ruhi va ohanglaridagi asarlarning paydo bo‘lishida ko‘rinadi.

Adabiyot tahlili va metodlar. Tasavvuf bir qancha murakkablik va ziddiyatlarni o‘zida aks ettiradi. Uni to‘g‘ri anglash va imkon qadar undan foydalanish uchun adabiyotshunos Ibrohim Haqqul tasavvufni alohida-alohida bir necha yo‘nalishda tadqiq qilish zarurligini uqtiradi: “Ulardan birinchisi – sufiylik tarixi. Umumiy tarzda bo‘lsa hamki, bu tarixni bilmay turib, tasavvufning dunyoga kelish sabablari, shaklanish va taraqqiyot jarayonidagi qarama-qarshiliklar, ilk davr so‘fiylik bilan tariqatlar hamda vahdati vujud maydonga chiqqanidan keyingi davr tasavvuf tamoyillari haqida ishonchli fikr-mulohazalarni ilgari surish yoki taxminiy gaplardan tiyilish juda qiyindir.

Ikkinchisi – tasavvuf tajribasi bo‘lib, bunda so‘fiylik amaliyotini aks ettiradigan muassasa, ya’ni tariqat bilan qiziqiladi. Bugungi kun nuqtai nazaridan qaraladigan bo‘lsa, tariqat bir ta’lim tarbiya tizimi sifatida allaqachon o‘z hayotini yashab bo‘lgan. Oldingi shakllarda uni qayta tiriltirishni hatto xayolga ham keltirib bo‘lmaydi. Ammo undan axloqni poklash, ruh va ko‘ngilni komillashtirish, ma’naviy hayotdagi muammolarni hal etishda foydalanish mumkin. Shuning bilan birga murid yo tolibning shayxi istak-irodasiga o‘zini butunlay taslim qilishi, azroq so‘fiylari deya qoralangan so‘fiylarga o‘xshab rizq, tama ilinjida ko‘chama-ko‘cha izg‘ib, eshikma-eshik tilanib yurish, mehnatkash xalqdan atayin o‘zini chetga tortish, karomatfurushlik qilish, raqs-u sa’mo‘ga tushib o‘zdan kechish, nainki bugun, kelajak uchun ham ahamiyatini butunlay yo‘qotgan.

Uchinchi qism bu – tasavvuf adabiyotidir. San’at, falsafa, musiqaga qaraganda ham tasavvufning badiiy adabiyot bilan aloqasi ancha chuqur va miqyoslidir. Biroq tasavvufiy fikr-qarash, qonun-qoida, ma’no, tushuncha va haqiqatlar targ‘ib-tashviqiga safarbar etilgan adabiyot, ya’ni zuhd adabiyoti, tariqat adabiyoti bilan Sharq mumtoz adabiyotidan o‘rin egallagan tasavvufiy “qatlam” ayni bir narsa, ayni bir ijodiy hodisa emas” [1.31-bet].

Mumtoz sharq adabiyoti, xususan, o‘zbek adabiyoti tarixini o‘rganishda, shubhasiz, shu jihatlarga jiddiy e’tibor qaratish lozim. Biroq zamonaviy she’riyatda tasavvuf an’analarining namoyon bo‘lishini o‘rganishda adabiyotshunos Ibrohim Haqqul ta’kidlagan uchala yo‘nalishning belgilari qorishiq tarzda ko‘zga tashlanishiga guvoh bo‘lamiz. Chunonchi, Abdulla Oripovning “Haj daftari” turkumiga kirgan she’rlari payg‘ambarimiz hadislariga hamohang tarzda yuzaga kelgan bo‘lsa, Asqar Mahkam she’rlari, xususan, dostonlarida diniy-tasavvufiy va falsafiy-tasavvufiy tajriba va qarashlar uyg‘unlashib ketadi, Abduvali Qutbiddin she’riyatida bo‘lsa, tasavvufiy falsafaning modern shakllarda izhor etilganligini kuzatish mumkin. Tasavvuf adabiyotida so‘fiy yo

oshiq holatini ifoda etishda muhim sanalgan tush, xayol, zavq, ilhom tushunchalari Abduvali Qutbiddin she’riyati poetikasining o‘zagini tashkil etadi.

O‘tgan tuzum mafkurasi, turli fanlarning namoyondalari tasavvufni islom dinidan ajratish yoki unga muxolifatdagi bir oqim sifatida talqin qilishga harakat qilganlar, aslida Qur’oni Karim, Hadisi Sharif va shariat tushunchalarisiz tasavvufni tasavvur etib bo‘lmaydi.

Muhokama. Yangi davr o‘zbek she’riyatida voqelikni poetik idrok etishda tasavvufiy ohanglar – ramzlar, simvolik obrazlar, rindona qarashlar, olamni va odamni butun marakkabliklari va ziddiyatlari bilan falsafiy talqin etilar, so‘fiylarning hikmatlari, ibratlari, lutflari, muborak nomlari va a’mollari, qolaversa, imo-ishoralar tilida yashab qoldi, hozirgi she’riyat poetikasida mustahkam qaror topdi.

Zamonaviy she’riyatda voqelikning poetik manzaralarini gavdalantirishda tasavvufiy talqinlarning muhim ahamiyat kasb etishini Abdulla Oripov she’rlari misolida ham ko‘rish mumkin.

Nafs ila dunyoga dil bergan fosiqlar siz bu kun
Yassaviy xok poyidan aylab oling tummorlar.

Milliy o‘zlik tuyg‘usiga putur yetgan, diniy qadriyatlar unutilayozgan ateistik mafkura hukmronligi davrida Abdulla Oripovning o‘z zamonasi dardlariga Yassaviy siymosidan davo izlashi g‘oyat o‘rinli va jasoratli sa’y-harakat edi. Chunki Yassaviy ham o‘z davrida “nafs iligi’dan qutulmoq, atrofda to‘lib-toshgan fisq-u furujlarga barham bermoq yo‘llarini izlagan. Yomonlik, nodonlik, jaholat, molparstlik illatlariga rivoj bergan dunyoni yurakdan quvishga da’vat etadi.

Tasavvufning tasavvufligi shunda ko‘rinadiki, unda hamisha insoniyatning hal qilinishi mumkin bo‘lgan murakkab va ziddiyatli ruhiy muammolari qalamga olingan. “Nohaq da’vo qilg‘on”lar, “harom yegan hokimlar”, “dunyo mening” deb “jahon molin” yiqqan amaldorlar, “oqni qaro qilg‘on”lar, “totlig‘-totlig‘” yeb, “turluk-turluk kiygan”lar Ahmad Yassaviy davrida bo‘lganidek, Abdulla Oripov zamonida ham bor edi.

Ruh va vujud masalasi tasavvuf she‘riyatida eng ko‘p talqinlarga sabab bo‘lgan mavzulardan. Abdulla Oripov ruh va vujud munosabatiga qayta-qayta murojaat qiladi. Har bir she’rida yangi bir poetik mazmun kashf etadi, olamni falsafiy idrok etishning original tashbeh va obrazlarini topadi.

Vujud deganlari asli nimadir?
Dayr dengizida yurgan kemadir.
Bir kun qoyaga urilgay kema,
Ruhim, sen vujudning g‘amini yema.
Yuksak fazolarga aylagil parvoz,
Senda na ohang bor va na bor ovoz.

Senga na bo‘ronlar kor qila olur,
Seni na yo‘qotib, bor qila olur.
Sen misli kamalak – yuksak va so‘lmas,
Kamalakni esa parchalab bo‘lmas [3.100-bet].

Voqelikni, ruhiy holatga, narsa-buyumlarga falsafiy qarash, ularga so‘fiyona yondashish Abdulla Oripov she‘rlarining o‘ziga xosligini ta‘minlagan omillardandir. U so‘fiy shoirlardek vujudning – fanoga, ruhning – baqoga daxldorligini e‘tirof etadi. Vujudni yengish mumkin, parchalash mumkin, biroq kamalak – ruhni yengib va parchalab bo‘lmaydi. Insonning “men”ligi ana shu parchalanmas o‘zlikda.

Natijalar. Adabiyotshunos Ibrohim Haqqul G‘afur G‘ulom to‘g‘risidagi maqolasida “Bedil va G‘afur G‘ulom” mavzusining tadqiqi G‘afur G‘ulom qalbidan o‘rin egallagan g‘am-g‘ussa va armon to‘lqinlarini idrok qilishga yo‘l ochgan bo‘ladi”, – deb yozadi [2.30-bet]. Xuddi shu kabi boshqa bir qator shoirlar ijodini mumtoz adabiyot bilan qiyosiy o‘rganish hozirgi o‘zbek she‘riyatining asl ildizlarini ochishga xizmat qilgan bo‘lar ediki, shulardan biri Abdulla Oripov ijodidir. Uning “Ruhim”, “Ishonch”, “Savob”, “Sen uzoq yashaysan”, “Qonuniyat”, “Olomonga”, “Xotirot”, “Ona sayyora” kabi talay she‘rlari shunga asos beradi. “Sharq hikoyasi”, “Tulki falsafasi”, “Samoviy mehmon, besh donishmand va farrosh kampir qissasi” kabi qator she‘rlari esa Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy asarlaridagi she‘riy hikoyatlarni esga soladi.

Xulosa. Umuman olganda, istiqlol arafasi va undan keyingi davr adabiyotida necha o‘n yilliklar davomida yetakchi mavzu bo‘lib kelgan ijtimoiylik o‘z o‘rnini ko‘ngil she’riyatiga bo‘shatib berdi. Bu esa o‘z navbatida ijodiy izlanishlar, eksperementlar miqyosini kengaytirdi, natijada tasavvuf ta’limotini o‘qib-o‘rganish va ijodiy o‘zlashtirishga olib keldi. Shu tariqa hozirgi o‘zbek she’riyatida mumtoz an’analar qaror topa boshladi, uslublar va ifoda tarzi ranginlashdi, olam va odamni talqin etishga munosabat o‘zgardi, poetik mazmun teranlik va originallik kasb etib yangilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ҳаққул И. Тасаввуф: тарих, моҳият ва тадқиқ талаблари //Ўзбек тили ва адабиёти журнали. 2017 йил, 3-сон. 31-бет,
2. Ҳаққул И. Шарқ мумтоз адабиёти ва Ғафур Ғулом ижодиёти //Ўзбек тили ва адабиёти журнали. 2018 йил, 3-сон. 31-бет.
3. Орипов А. Танланган асарлар. – Т.: “Шарқ”, 2019. –Б 784.